

**TIJORAT BANKLARI ORQALI IQTISODIYOTNING REAL
SEKTORINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'NALISHLARI**

Ikramov Oybek Gulamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

email: gradapak@mail.ru

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyatida xo'jalik subyektlarini kreditlash funksiyasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lganligi uchun banklar faoliyatining samaradorligi va likvidligini ta'minlash uchun avvalambor, banklarning kredit siyosatini to'g'ri ishlab chiqishga e'tibor berish zarur. Banklar oladigan daromadlar uning aktiv operatsiyalari natijasida, asosan kredit operatsiyalari orqali vujudga kelishi banklar tomonidan kredit siyosatini oqilona tashkil etish va amalga oshirishni taqazo qiladi.

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'lagi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarni amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini, hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kreditlash jarayoni – bu mijoz bankka ariza bilan murojaat etgan kun va ular orasida kredit shartnomasi imzolangan davrdan boshlab, to olingan ssudani so'ndirishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladigan jarayondir. Kreditlash jarayoning boshlanishi mijoz va bank o'rtasida kredit munosabatlarining o'rnatilganligini bildiradi. Ushbu jarayonda bank qarz oluvchidan istalgan hujjatni talab qilish huquqiga va ssuda berishdan avval, qarz oluvchining moliyaviy holatini batafsil o'rganib chiqib, uni kreditga qobil deb topgachgina unga ssuda berishi va to ssuda so'ndirilishiga qadar uni doimiy monitoring qilib borishi zarur.





Kreditlash jarayonining xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, Kreditlash jarayonida kredit siyosati talablaridan kelib chiqib, mijozning moliyaviy holatini aniq va ishonarli tahlil etilish va monitoringni to'g'ri tashkil qilish samarali natijalarga olib keladi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash xususidagi masalalar to'g'risida to'xtalib, D.MakNoton rivojlanayotgan mamlakatlarda kreditlash amaliyotini tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biri kreditlarni garov ta'minoti asosida berishni odatiy hol sifatida qabul qilishdir, degan xulosaga keldi. Uning fikriga ko'ra, garov sifatida olinadigan mulkning sotilish bahosi kredit va uning foizini qaytarishga yetishi lozim. Bu esa, mulkni doimiy ravishda qayta baholab turishni taqozo qiladi. Bizning fikrimizcha, olimning mulkni davriy baholash to'g'risidagi fikri respublikamiz amaliyoti uchun ham juda muhim hisoblanadi. Chunki mulklarning joriy bahosini tez-tez o'zgarish holati mamlakatimizning xo'jalik amaliyotiga xos bo'lgan holat hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan doimiy ravishda o'sib borish tendensiyasini hamda baholarning muntazam o'sishini inobatga olgan holda kredit uchun garov sifatida qabul qilingan mol-mulk bahosini har oy yoki har chorak yakuniga qayta baholashni yo'lga qo'yish zarurdir.

Mijozni bank tomonidan kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkinligi bo'yicha iqtisodchi olimlarning fikrlari mavjud. Ularning fikriga ko'ra, kredit liniyasi orqali mijozni kreditlashda kompensatsion qoldiqdan foydalanish orqali mijozni nisbatan past foiz stavkasida kreditlash mumkin. Bu esa, kredit riskini kamayishiga, kreditni qaytish ehtimolini oshishiga olib keladi.

2024-yilda global iqtisodiyotda yuqori darajadagi noaniqliklar saqlanib qolgan sharoitlarda jahonda moliyaviy resurslar narxlarining oshishi hamda ushbu resurslarning asosan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga yo'naltirilayotganligi kuzatildi.



Mazkur holatda iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi xatti-harakatlar, xususan, davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish belgilangan miqdoriy budjet parametrlari doirasida davom ettirildi.

Natijada, 2024-yilda umumiy fiskal defitsitning YaIMga nisbati 3,3 foizni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,4 trln so'mga qisqargan. Ushbu prosiklik fiskal siyosat nisbatan qat'iy monetar siyosat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fiskal va monetar siyosatlar o'zaro muvofiqlashuvi imkoniyatarini kengaytirdi. Hisobot yilida davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari 2023-yilga nisbatan 11,3 foizga o'sib, 361,1 trln so'mga yetdi. Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalari xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha 42,2 foizni, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash xarajatlari 10,6 foizni hamda ishlab chiqarish va infratuzilmani rivojlantirish dasturlariga yo'naltirilgan mablag'lar qariyb 8 foizni tashkil etdi.

Yuzaga kelayotgan tashqi shoklarning salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan pul-kredit siyosatining yuritilishi hamda makroprudensial siyosat instrumentlarining kengaytirilishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining banklar tomonidan kreditlash imkoniyatlarini oshirmoqda.


2024-yilda iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun **287,1** trln so'm (2023-yilga nisbatan 35,8 trln so'mga ko'p) miqdorida kreditlar ajratildi.

O'z navbatida, iqtisodiyotdagi umumiy kredit qo'yimalari qoldig'i esa o'tgan yilga nisbatan 14 foizga o'sib, 566,2 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit qo'yimalari qoldig'i 389,8 trln so'mni, aholiga ajratilgan kredit qo'yimalari qoldig'i 176,3 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan mos ravishda 11,8 hamda 18,9 foizga oshgan. Kreditlarning 26,4 foizi sanoatga, 13,4 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 7,1 foizi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, 2,8 foizi qurilishga hamda 2,5 foizi transport va kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. 2024-yilda aholiga 104,7 trln so'm kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, ushbu kredit mablag'larining 43,8 foizini mikroqarz,

17,7 foizini iste'mol krediti, 16,6 foizini mikrokreditlar, 16,3 foizini ipoteka kreditlari tashkil etdi.

1-rasm

Ajratilgan kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi ulushi¹



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida ham aholi daromadlarini ko'paytirish va bu orqali iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari davom ettirildi.

2024-yilda aholi umumiy daromadlari 2023-yilga nisbatan real hisobda 8,1 foizga oshib, 896,3 trln so'mni tashkil etdi. Mazkur o'sish asosan iqtisodiyotda o'rtacha real ish haqi miqdorining 7 foizga, pensiya va nafaqalar nominal miqdorining 15 foizga, transfertlar hamda mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning mos ravishda 1,1 hamda 1,2 barobarga, shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning² 1,4 barobarga oshishi hisobiga shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 60 foizdan yuqori darajada saqlanib

¹ <https://cbu.uz/uz/publications/annual-report/>

² Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo'ljallanmagan, uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan o'z uyida yashash xizmatlarining shartli hisoblangan qiymati kiradi. O'zbekistonda bu xizmat hajmi foydalanuvchilarning xarajatlari usulida baholanadi, ya'ni uy egalari o'z uylarini ijaraga berishlari kerak bo'lganda, bozor baholaridagi ijara narxini belgilash uchun tegishli xarajatlar elementlari hisobga olinadi.



qolmoqda. O'z navbatida, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi 26 foizga to'g'ri kelib, tarkibida asosiy qismni xalqaro pul o'tkazmalari tashkil etadi. Mehnat migratsiyasi geografiyasi tarkibida yuqori daromadli davlatlar ulushining ortishi hisobiga 2024-yilda xalqaro pul o'tkazmalari o'tgan yilga nisbatan 30 foizga yoki 3,4 mlrd dollarga ortib, 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi.

2024-yilda mehnat faoliyatidan olingan daromadlarining aholi umumiy daromadlari o'sishiga qo'shgan hisssasi 2023-yilga nisbatan 5,4 f.b.dan 4,4 f.b.ga pasaydi. Hisobot yilida aholi daromadlarining o'sishi asosan doimiy bo'lmagan manbalar – o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar (+1,8 f.b.) va transfertlar (+1,0 f.b.) hisobiga ta'minlandi³.

Qayd etish joizki, yuqori iqtisodiy faollik hamda ishchi kuchi unumdorligi nisbatan past bo'lgan sharoitlarda iqtisodiyotni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar aholi daromadlarining oshishi yalpi talabni rag'batlantiruvchi omillardan biri bo'lib, o'z navbatida, inflyatsion bosimni yaratmoqda.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

Bank doimiy ravishda xizmat ko'rsatayotgan mijozlarining faoliyatiga doir axborotlarga ega bo'lib, ularning kreditga layoqatliligi, to'lov intizomiga amal qilishlari holatini tahlil etib borib "ma'lumotlar banki" bazasini vujudga keltirib boradi.

Diversifikatsiya so'zi bizning amaliyotimizda shu yaqin oradan buyon qo'llanila boshlagan zamonaviy ibora bo'lgani uchun biz uning mohiyatini chuqurrok ochib berishga qaror qildik. Zero bu so'zning mohiyatini turli tushunish,

³ O'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning umumiy daromadlar o'sishiga qo'shgan hissasining oshishi ehtimolan statistik o'zgarishlar hamda hisob-kitoblarda yashirin iqtisodiyotni inobatga olish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

uni amaliyotda qo'llay olish har bir xuquqiy shaxs faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkin.

Bank ishida diversifikatsiyalashni qo'llash masalasiga kelsak bank faoliyatining turli sohalari uchun diversifikatsiya usuli mos keladi. Bu usulni qo'llash banklarning passiv, aktiv, vositachilik va boshqa operatsiyalari sohasida qulay kelishi mumkin.

Bank faoliyatida diversifikatsiya o'tkazish faqat bank aktivlarini joylashtirishni o'z ichiga olmasdan bankning barcha faoliyati bilan bog'liq jarayonlardagi risklarni kamaytirish sohasida qo'llaniladigan usul bo'lib, uni nafaqat bank aktivlarini joylashtirish bo'yicha, balki banklar tomonidan resurslarni jalb qilish, mijozlarning o'rni, bankning umumiy strategiyasini olib borish va boshqa sohalarda ham qo'llash mumkin.

Shu sababli diversifikatsiyaning bank ishida ishlatilishi bu bankning passiv operatsiyalarida bank jalb qiladigan mablag'lar turli tarmoqlar, ko'p sonli jamg'armachilar tomonidan bo'lishini taqazo qilsa, bank aktiv kredit, investitsiyalash operatsiyalarini bajarganda pul mablag'larini turli tarmoq, sohaga kam miqdorda ko'p sonli mijozlarga taqsimlashni ko'zda tutadi. Mablag'larni yuqoridagi usul bilan taqsimlashdan asosiy maqsad mablag'larning qaytib kelmasligi bilan bog'liq risklarning oldini olish ularni kamaytirishga intilishdan iborat. Bankning passiv operatsiyalari bo'yicha diversifikatsiya o'tkazilishi bankning kredit potensialining mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Kredit risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir. Shundan kelib chiqqan holda bankning kredit portfelining diversifikatsiyasi - bu bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlashni tushunamiz. Diversifikatsiyalashni uch xil yunalish bo'yicha olib borish mumkin. Bular portfel, geografik va kreditlarni to'lash muddatiga qarab o'tkaziladigan diversifikatsiya turlaridir. Banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish bankning kreditlarini har xil sohadagi bir



necha mijozlar o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi. Diversifikatsiya qilinmagan kredit, investitsiya portfelini doimo yuqori risk bilan bog'lik bo'ladi.

Ko'plab banklar aktivlar portfelida aktivlarni faqat bir tarmoqqa emas, balki turli tarmoqlarga qo'yishni o'zlariga tamoyil qilib olishlari zarur. Agar bir aktivdan yuqotishlar bo'lsa, bank unchalik katta talafotlar ko'rmaydi, aksincha bank bir sohaga qo'yilgan bir necha aktivi bo'yicha muammoga uchrasa, uning ahvoli ancha yomonlashadi. Bunday hollarda aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish tamoyili qo'llanilishi lozim, chunki proporsional bo'lgan, biror aktivga qo'yilgan mablag'dan kelgan zararlarni boshqalarning ijobiy natijasidan qoplash imkoniyatini beradi.

Respublikamizda esa, mijozlarning har bir konkret holatida kreditga bo'lgan ehtiyojini to'laroq ravishda qondirish imkonini beradigan kreditlash usullaridan foydalanilmayotganligi muammosi ham kreditlash amaliyotini takomillashtirishga to'siq bo'lmoqda.

Hozirgi kun amaliyotida tijorat banklari tomonidan mijozlarni kreditlash asosan alohida ssuda xisob varag'i orqali amalga oshirilmoqda. Xorijiy valyutada kreditlar asosan kredit liniyalari ochish yo'li bilan olinmoqda.

Tijorat banklari tomonidan xo'jalik subyektlarini qisqa muddatli kreditlashning xalqaro bank amaliyotida bir nechta usullari mavjud bo'lib, ayni vaqtda respublikamiz bank amaliyotida kreditlashning kontokorrent, overdraft, forfeyting, lombard krediti kabi asosiy shakllaridan to'laqonli ravishda foydalanilmayapti.

Hozirgi kundagi O'zbekistondagi tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash amaliyoti joriy holatining tahlili yechimini kutayotgan anchagina muammolarning mavjudligini ko'rsatmoqda. Biz, nazariy va amaliy ma'lumotlarning tahlili natijasida banklarning kreditlash amaliyotiga rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar banklari tomonidan qo'llanilayotgan kreditlashning noan'anaviy usullaridan mamlakatimiz bank amaliyotida foydalanishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.